«TASDIQLAYMAN»
Toshkent tibbiyot akademiyasi
rektori, professor
A.K. Shadmanov
«27» oktyabr 2021 yil

Toshkent tibbiyot akademiyasi

Ilmiy kengashining

3-sonli BAYONI

Toshkent shahar «27» oktyabr 2021 yil

Raislik qiluvchi: A.K.Shadmanov — **Toshkent tibbiyot akademiyasi rektori, professor**

Qatnashdilar: — **Toshkent tibbiyot akademiyasining Ilmiy kengashi a'zolari** (ro'yxat bo'yicha)

KUN TARTIBI

1.Toshkent tibbiyot akademiyasi (keyingi o'rinlarda-Akademiya) asosiy binosining ta'mirlash va jihozlash bo'yicha ustuvor vazifalar va bajarilishi monitoringi.

Ma'ruzachi - Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori Toshpo'latov Farrux Baxtiyorovich.

2. Akademiya kafedralari o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish, o'quv rejadagi fanlar bloki va mavzular tahlili.

Ma'ruzachi – O'quv ishlari bo'yicha prorektor Boymurodov Shuxrat Abdujalilovich.

3. Akademiya qabul hay'atining 2021/2022 o'quv yiliga talabalar qabuli natijalari bo'yicha hisoboti.

Ma'ruzachi – Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i Matmurodov Rustam Jumanazarovich.

4. Professor-o'qituvchilarni tanlov asosida lavozim va ilmiy unvonlarga saylash.

Ma'ruzachi – tanlovda (keyingi o'rinlarda-Komissiya raisi)

5. Dissertatsiya, monografiya va o'quv-uslubiy ishlar mavzularini tasdiqlash.

Ma'ruzachi – Kengash kotibi Ismailova Guli Amindjanovna.

6. Turli masalalar.

Kun tartibi ovozga qo'yildi va bir ovozdan qabul qilindi.

O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor **Sh.A. Boymuradov**

Ilmiy va innovatsion ishlar bo‘yicha prorektor **F.L. Azizova**

Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha prorektor **T.A. Bobomuratov**

Davolash ishlari bo‘yicha prorektor **M.Sh. Karimov**

O‘quv-uslubiy bo‘lim boshlig‘i **Sh.Sh. Massavirov**

Q A R O R Q I L A D I:

1. Akademiya asosiy binosining ta'mirlash va jihozlash bo'yicha ustuvor vazifalar va bajarilishi monitoringi bo'yicha O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i Sh.Sh.Massavirov, ma'ruza qildi. Ma'ruza ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin (ma'ruza matnda keltirilgan).

1.1. Akademiyaning Bosh o'quv binosida barcha bo'lim va kafedra bo'limlarning qavatlar kesimida joylashish loyihasi tasdiqlansin.

Akademiyaning Bosh o'quv binosida joylashadigan kafedralar va bo'lim boshliqlari o'z joylari bilan tanishib chiqishlari ta'kidlab o'tilsin va ta'mirlash hamda jihozlash bo'yicha barcha takliflar ushbu guruh manzilida (https://t.me/TTA_Bosh_bino) qabul qilinishi ta'minlansin.

Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i Sh.Sh.Massavirov, barcha bo'lim boshliqlari, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

Muddat: 2021 yil bino qo'rilishi betganga qadar.

1.2. Bosh o'quv binosining loyihachiga ob'ekt bo'yicha texnik topshiriqlarni berish va qurilish yakunlangan kuniga qadar uni doimiy nazorat qilish uchun quyidagi ma'sul shaxslar nomzodlari tasdiqlansin.

Ma'sullar: Simulyatsion markaz bo'yicha - B.T.Xolmatova, L.A.Abduraximova, A.Norbekov; O'quv auditoriyalar va ma'ruza zallari - Sh.A.Boymurodov, Sh.Sh. Massavirov, Kafedralar bo'yicha - Sh.A.Boymurodov, Sh.Sh.Massavirov, barcha kafedra mudirlari; Ma'muriyat xonalari bo'yicha - Sh.A.Boymurodov, F.B.Toshpo'latov; Muzey xonalari bo'yicha- T.A.Bobomurotov, O.M.Mirtazaev; Ilmiy laboratoriyalar - F.L.Azizova, L.N.Xegay; Test markazi va elektron kutubxona (2-qavat) - A.K.Musaxonov, G.V.Kuzmina; Kutubxona - Sh.A.Boymurodov, G.V.Kuzmina; Oshxona va boshqa umumiy foydalanish joylari bo'yicha - F.B. Toshpo'latov, A.Norbekov; Raqamlashtirish ta'lim texnologiyalari markazi bo'yicha - F.B.Toshpulatov, A.K.Musaxonov.

Muddat: doimiy nazorat.

2. Kun tartibining ikkinchi masalasi – Akademiya kafedralari o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish, o'quv rejadagi fanlar bloki va mavzular tahlili - mavzusidagi O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymurodovning ma'lumotlari axborot va ijro uchun qabul qilinsin (ma'ruza matnda keltirilgan).

2.1. Akademiyaning fakultet va kafedralarida kredit birliklarini hisobga olgan holda o'quv dasturlarini yaratilishi, fan bo'yicha auditoriya ishlari uchun materiallar: ma'ruza matnlari, seminar rejalari, darslarning multimediali ta'minotini, vaziyatli masalalar to'plami, talabalarning mustaqil ishlari uchun materiallar: (uy vazifalari matnlari to'plami, o'z-o'zini nazorat qilish materiallari, referatlar va kurs ishi mavzulari), o'quv materiallarini elektron formati borilsin.

Mas'ul – O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A. Boymuradov, O'quv-uslubiy bo'shqarma boshlig'i Sh.Sh.Massavirov, Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i Sh.Q.Adilov, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

Muddat – doimiy.

2.1. Fanlar bo'yicha kredit-modul tizimi yuritilishi jarayoni kafedralar kesimida doimiy monitoringi o'tkazilishi ta'minlansin.

Mas'ul – O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A. Boymuradov, O'quv-uslubiy bo'shqarma boshlig'i Sh.Sh.Massavirov, Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i Sh.Q.Adilov, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor **Sh.A. Boymuradov**

Ilmiy va innovatsion ishlar bo‘yicha prorektor **F.L. Azizova**

Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha prorektor **T.A. Bobomuratov**

Davolash ishlari bo‘yicha prorektor **M.Sh. Karimov**

O‘quv-uslubiy bo‘lim boshlig‘i **Sh.Sh. Massavirov**

Muddat – doimiy.

3. Kun tartibining uchinchi masalasi "Akademiya qabul hay'atining 2021/2022 o'quv yiliga talabalar qabuli natijalari bo'yicha hisoboti" mavzusidagi Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i R.J.Matmurodovning ma'lumotlari axborot uchun qabul qilinsin (ma'ruza matnda keltirilgan).

4. Kun tartibining to'rtinchi masalasi "Professor-o'qituvchilarni tanlov asosida lavozim va ilmiy unvonlarga saylash" bo'yicha Akademiya kengashi kotibi G.A.Ismailova, Jumladan, 2021 yil professor (N.J.Ermatov., Bolalar, o'smirlar va ovqatlanish gigienasi kafedrasi mudiri, tibbiyot fanlari doktori, ilmiy unvonga talabgorni hamda kafedra mudiri lavozimiga nomzodlarning (D.Q.Najmutdinova-"2-akusherlik va ginekologiya" kafedrasi, A.A.Xamraev-"2-son ichki kasalliklar" kafedrasi, D.X.Tursunov - "Tibbiy va biologik kimyo" kafedrasi, M.E.Axmedova - "O'zbek va xorijiy tillar" kafedrasi) hujjatlari taqdim etilganligi haqida ma'lumot berdi va hujjatlari bilan kengash a'zolarini tanishtirdi. (1-ilova). So'ng tanlov o'tkazildi (hisob komissiyasining 3-sonli bayonnomasi matnda keltirilgan).

5. Kun tartibining beshinchi masalasi "Dissertatsiya, monografiya va o'quv-uslubiy ishlar mavzularini tasdiqlash" bo'yicha kengash kotibi G.A.Ismailova tasdiqlash uchun taqdim etilgan ilmiy va o'quv mahsulotlar bilan tanishtirdi. (2-ilovada keltirilgan) va tasdiqlash uchun ovozga qo'yildi.

5. Turli masalalar.

5.1. Barcha magistratura yo'nalishlari bo'yicha 2021/2022 o'quv yilida qabul qilingan magistr – talabalarni magistrlik dissertatsiya mavzulari tasdiqlansin (3- ilovada keltirilgan).

Qaror bir ovozdan qabul qilindi. Ilmiy Kengash o'z ishini yakunladi.

Oliy ta'lim muassasasi
kengash kotibi **G.A. Ismailova**

O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor	**Sh.A. Boymuradov**
Ilmiy va innovatsion ishlar bo‘yicha prorektor	**F.L. Azizova**
Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha prorektor	**T.A. Bobomuratov**
Davolash ishlari bo‘yicha prorektor	**M.Sh. Karimov**
O‘quv-uslubiy bo‘lim boshlig‘i	**Sh.Sh. Massavirov**